

**“Arxitektura, qurilish, dizayn va shaharsozlik” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan
MAQSADLI DASTURI**

1. Keramik kompozitsion plyonkalar bilan jihozlangan gelioqurilmada gazobeton bloklarini quritish va qotirishning energiya samarador texnologiyasini ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: farg‘ona viloyatidagi gazobeton bloklari ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulotni ochiq havoda quritish va qotirish jarayonining davomiyligi, ob-havo sharoitlariga bog‘liqligi, energiya va mehnat sarfi, mahsulot sifatining beqarorligi hamda ishlab chiqarish quvvatini cheklovchi omillar o‘rganiladi. Quritish jarayonini ishlab chiqarishning asosiy cheklovchi bosqichi sifatida baholash mezonlari ishlab chiqiladi; quyosh energiyasidan maksimal foydalanishga mo‘ljallangan, keramik kompozitsion plyonka bilan qoplangan 12×6 metr o‘lchamdagi gelioqurilmaning konstruktiv va texnologik yechimi ishlab chiqiladi. Qurilmaning yon devori balandligi 2,0 metr, gumbazning eng yuqori nuqtasi 3,0 metr, markaziy yo‘lak kengligi 1,2 metr bo‘lib, mahsulotlarni uch qator joylashtirish imkoniyati yaratiladi; keramik kompozitsion plyonkaning quyosh nurlarini o‘tkazish, issiqlikni ushlab turish, ultrabinafsha nurlanishga va tashqi muhit ta’sirlariga chidamlilik xususiyatlari aniqlanadi. Gelioqurilmadagi harorat, nisbiy namlik va havo almashinuvi rejimlarini boshqarish orqali gazobeton bloklarini bir tekis quritish va qotirishning maqbul parametrlari asoslanadi; quritish jarayonining harorat-namlik rejimi, tabiiy va majburiy ventilyatsiya ko‘rsatkichlari, bloklarni joylashtirish masofasi va aylanish davri optimallashtiriladi. Qurilma ichida harorat va namlikni doimiy nazorat qilish uchun o‘lchash datchiklari va monitoring tizimidan foydalanish bo‘yicha texnik yechimlar ishlab chiqiladi; an‘anaviy ochiq havoda quritishda 3 kun davom etadigan jarayon gelioqurilmada 2 kungacha qisqartiriladi, ya’ni quritish vaqti 33 foizga tezlashadi. Ishlab chiqarish quvvati 50 foizgacha oshiriladi, energiya sarfi 25–35 foizgacha kamaytiriladi, bloklarning mustahkamligi va o‘lcham barqarorligi yaxshilanadi hamda yuzaki yoriqlar va nuqsonlar miqdori kamayadi; gelioqurilmaning bir qatoriga 150 dona, uch qatoriga jami 450 dona gazobeton bloki joylashtiriladi. Texnologiyani uzluksiz qo‘llash natijasida yillik ishlab chiqarish hajmini 90 000 donadan 135 000 donagacha oshirish, ya’ni qo‘shimcha 45 000 dona mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi; taqdim etilgan texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarga ko‘ra, qo‘shimcha mahsulot sotishdan yiliga 787,5 mln so‘m daromad, energiya tejamkorligi hisobidan 250 mln so‘m iqtisod olinadi. Jami yillik iqtisodiy samara 1 mlrd 37,5 mln so‘mni tashkil etishi kutiladi. Gelioqurilmani qurish, jihozlash va ishga tushirish uchun umumiy investitsiya 31,9265 mln so‘m, loyiha qoplanish muddati esa 30,8 oy yoki taxminan 2,6 yil deb baholanadi; loyiha doirasida gelioqurilmaning loyiha-smeta hujjatlari, metall karkas konstruksiyasi, poydevor va beton ishlari, keramik kompozitsion plyonka qoplamasi, ichki yo‘laklar, mahsulot joylashtirish sxemasi, tabiiy va majburiy ventilyatsiya tizimi hamda texnologik monitoring reglamenti ishlab chiqiladi; tajriba-sanoat qurilmasida quritilgan gazobeton bloklarining o‘rtacha zichligi, namligi, siqilishdagi mustahkamligi, geometrik aniqligi, issiqlik o‘tkazuvchanligi, sovuqqa chidamliligi va tashqi ko‘rinishi amaldagi standartlar talablariga muvofiq aniqlanadi.
--	--

	Texnologiyani joriy etish hisobiga ishlab chiqarish barqarorligi oshirilib, 6–8 ta yangi doimiy ish o‘rni yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Ishlab chiqilgan gelioqurilma gazobeton bloklari ishlab chiqaruvchi korxonada tajriba-sanoat sinovidan o‘tkaziladi. An’anaviy ochiq havoda quritilgan va gelioqurilmada qotirilgan mahsulotlarning texnologik, fizik-mexanik va iqtisodiy ko‘rsatkichlari qiyoslanadi. Sinov natijalari asosida ishlab chiqaruvchi korxona hamda “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining texnologiyani amaliyotda qo‘llashga yaroqliligi to‘g‘risidagi xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va Web of Science/Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar tajriba-sanoat gelioqurilmasini joylashtirish maydoniga ega gazobeton ishlab chiqaruvchi korxona va “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining qo‘llab-quvvatlash xatlari mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.
--	--